XALQ DEPUTATLARI QO‘QON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 9-avgust VI-76-72-11-166-K/24 Qo‘qon shahar

Qo‘qon shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Qo‘qon shahri ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi shahar Komissiyasining 2024-yil 03-iyuldagi 03-29/10-sonli bayonnomasi bilan Qo‘qon shahrining O‘zbekiston, Dang‘ara, Uchko‘prik va Furqat tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Qo‘qon shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 11-iyundagi 104-sonli xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida Qo‘qon shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastragentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;

- Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 11-iyundagi 104-sonli xati;

- shahar ishchi komissiyasining 2022-yil 03-iyuldagi 03-29/10-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Qo‘qon shahri ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Qo‘qon shahrining O‘zbekiston, Dang‘ara, Uchko‘prik va Furqat tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Qo‘qon shahrining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, Qo‘qon shahrining ma’muriy-hududiy chegara chizig’ining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Qo‘qon shahrining O‘zbekiston, Dang‘ara, Uchko‘prik va Furqat tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (A.Ziyavitdinov) hamda Kadastr agentligi Qo‘qon shahari bo‘limi boshlig‘i (I.Baxodirov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi



USMONOV MARUF AZAMOVICH

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2024-yil 9-avgustdagi
VI-76-72-11-166-K/24 -son qaroriga
1-ilova

M A ‘ L U M O T

№	Tuman nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**Qo‘qon shahri**	**48975,28**	**6315,66**

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2024-yil 9-avgustdagi
VI-76-72-11-166-K/24 -son qaroriga
2-ilova

